

O‘SMIRLIK DAVRIDA SALBIY XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Imomova Mamura Abdurasul qizi

Toshkent shahar Yunusobod tumani 327-sonli maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘smirlik davrida salbiy xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik, biologik, oilaviy va ijtimoiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, salbiy xulq-atvorning shaxs rivojlanishiga ta’siri, uni erta aniqlash hamda profilaktika va korreksiya qilishning zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, salbiy xulq-atvor, deviant xulq-atvor, psixologik omillar, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, maktab psixologi, profilaktika, korreksiya, ruhiy salomatlik.

KIRISH

O‘smirlik davri inson hayotining eng murakkab rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar jadal kechadi. Mustaqillikka intilish, o‘zini namoyon etish istagi, tengdoshlar ta’sirining kuchayishi va emotsional beqarorlik ayrim hollarda salbiy xulq-atvor shakllarining rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Salbiy xulq-atvor o‘quvchining ta’lim jarayoni, oilaviy munosabatlari va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli uning psixologik asoslarini o‘rganish va profilaktik choralarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Salbiy xulq-atvorning shakllanishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari muhim o‘rin tutadi. Emotsiyalarni boshqara olmaslik, impulsivlik, past o‘zini baholash, xavotir, frustratsiya, tajovuzkorlik va stressga chidamlilikning pastligi salbiy xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, o‘smirning yoshiga xos psixologik xususiyatlari sababli u o‘z his-tuyg‘ularini to‘liq nazorat qila olmasligi va qaror qabul qilishda hissiyotlarga ko‘proq tayanishi mumkin. Nazariy jihatdan Albert

Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi salbiy xulq-atvor kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash orqali shakllanishini asoslaydi. Urie Bronfenbrennning ekologik tizimlar nazariyasiga ko'ra esa o'smirning rivojlanishiga oila, maktab, tengdoshlar va jamiyat kabi turli ijtimoiy muhitlar kompleks ta'sir ko'rsatadi.

Oilaviy muhit salbiy xulq-atvorning shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Ota-onalar o'rtasidagi nizolar, nazoratning sustligi yoki haddan tashqari qat'iyligi, mehr va e'tiborning yetishmasligi, zo'ravonlik yoki beparvolik o'smirning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar, tengdoshlar bosimi, bulling, salbiy guruhlar ta'siri hamda internet va ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontent bilan muntazam muloqot qilish salbiy xulq-atvor xavfini oshiradi.

Maktab psixologi salbiy xulq-atvorni erta aniqlash, xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilar bilan individual ishlash, psixologik diagnostika o'tkazish va korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan profilaktik ishlar o'smirlarda ijtimoiy mas'uliyat, emotsional barqarorlik va sog'lom xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi.

Zamonaviy psixologik yondashuvlarda kognitiv-xulqiy metodlar, emotsional intellektni rivojlantirish, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, konfliktlarni konstruktiv hal qilish hamda stressni boshqarish usullaridan foydalanish salbiy xulq-atvorning oldini olishda samarali vositalar hisoblanadi. O'smirlarni sport, san'at, ilmiy va ijodiy to'garaklarga jalb etish ham ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga va ijobiy shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas'uliyatli rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davr odatda 10–11 yoshdan 15–16 yoshgacha bo'lgan oraliqni qamrab olib, bolaning bolalikdan kattalik sari o'tish jarayoni bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari, xarakteri, mustaqilligi va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Shu bilan birga, organizmda sodir bo'ladigan gormonal, fiziologik va psixologik o'zgarishlar o'smirning emotsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiyada bu davr ko'pincha "o'smirlik inqirozi" deb ataladi. Mazkur inqiroz tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga keladi. Tashqi omillarga ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, pedagoglar va ota-onalarning turlicha talablari, tengdoshlar bilan munosabatlarning murakkablashuvi hamda ijtimoiy mavqening o'zgarishi kiradi. Ichki omillar esa biologik yetilish, gormonal o'zgarishlar, o'zini anglash jarayoni va mustaqillikka intilish bilan bog'liqdir.

Agar ushbu davrda o'smirlarga zarur psixologik va pedagogik yordam ko'rsatilmasa, unda turli deviant xulq-atvor shakllari rivojlanishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, deviant xulq-atvor o'smirlar orasida 40–65 foizgacha uchraydi. Bunday holatlar jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va huquqiy me'yorlardan chetga chiqish bilan tavsiflanadi.

Psixolog V. Klayn o'smirlarning salbiy xulq-atvorini bir necha guruhlariga ajratadi. Birinchi guruh — "Esi past" deb nomlanib, bunday o'smirlar sho'xlik, yolg'on gapirish, uyga kech kelish, janjallashish, maktab intizomini buzish, zararli odatlarni sinab ko'rishga moyillik bilan ajralib turadi.

Ikkinchi guruh — "Ota-onaning dushmani" bo'lib, ular ota-onalariga nisbatan norozilik bildiradi, ularning talablarini inkor etadi va oilaviy nizolarni kuchaytiradi.

Uchinchi guruh — "Axloqsiz bola" bo'lib, bu toifadagi o'smirlar asotsial guruhlar ta'siriga tez beriladi, qonunbuzarlarga taqlid qiladi va oiladagi e'tiborsizlik tufayli salbiy yo'lga kirib qoladi.

To'rtinchi guruh — "Organik" tip bo'lib, bunda bosh miya faoliyatidagi organik nuqsonlar yoki aqliy rivojlanishdagi ortda qolish natijasida xulq-atvor buzilishlari kuzatiladi.

Beshinchi guruh — "Psixotiklar" bo'lib, ularda ruhiy kasalliklar, gallyutsinatsiyalar, tajovuzkor fikrlar va emotsional buzilishlar namoyon bo'ladi.

Oltinchi guruh esa "Nasliy buzuvchilik" deb ataladi. Ushbu toifadagi o'smirlarda psixopatik belgilar erta yoshdan namoyon bo'lib, ularda mas'uliyat hissi sust, boshqalarga nisbatan rahm-shafqat kam bo'ladi.

Rus olimi V.D. Mendelevich deviant xulq-atvorni voqelikka munosabatiga qarab besh turga ajratgan. Bular:

- delinkvent xulq-atvor (o'g'rilik, talonchilik, zo'ravonlik);
- addiktiv xulq-atvor (alkogol, giyohvandlik, internet va qimor o'yinlariga qaramlik);
- patoxarakterologik tip (psixopatiya va xarakter aktsentuatsiyasi);
- psixopatologik tip (ruhiy kasalliklar bilan bog'liq buzilishlar);
- giperqobiliyat yoki giperpatiya (iqtidorning me'yordan tashqari namoyon bo'lishi).

Olimlarning ta'kidlashicha, deviant xulq birdaniga shakllanmaydi. Avval kichik intizomsizliklar kuzatiladi, keyinchalik ular muntazam odatga, undan so'ng esa shaxsning turmush tarziga aylanishi mumkin.

K.E. Igoshevning fikricha, o'smirlik davriga xos impulsivlik va emotsional qo'zg'aluvchanlik ayrim hollarda affektiv harakatlarni yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatlarda o'smir o'z xatti-harakatining oqibatini yetarlicha baholay olmaydi.

Yu.A. Kleyberg esa deviant xulq-atvorni shaxsning jamiyat me'yorlariga bo'lgan munosabati bilan izohlaydi. Uning fikricha, o'smirlar ko'pincha o'zlarini namoyon qilish, tengdoshlari orasida mavqega ega bo'lish yoki ichki ziddiyatlarini bartaraf etish maqsadida me'yorlardan chetga chiqadilar.

N.I. Ozerskiy voyaga yetmagan huquqbuzarlarni tasodifiy, odatiy, turg'un va professional qonunbuzarlar guruhiga ajratgan. A.I. Dolgova esa qonunbuzar o'smirlarni izchil kriminogen, vaziyatli kriminogen va vaziyatli tiplarga bo'ladi.

Deviant xulq-atvor tajovuzkorlik, yolg'onchilik, o'g'rilik, daydilik, tushkunlik, suitsidal moyillik, zararli odatlar va ijtimoiy yakkalanish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bunday holatlar o'quvchining ta'lim olishi, tengdoshlari bilan munosabati va kelajakdagi ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli maktab psixologi, sinf rahbari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik deviant xulq-atvorning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik diagnostika, profilaktik treninglar, individual va guruhiiy maslahatlar, ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish dasturlari o'smirlarning salbiy xulq-atvorini kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng nozik bosqichlaridan biri bo'lib,

aynan shu davrda yuzaga keladigan deviant xulq-atvorni o'z vaqtida aniqlash va psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida profilaktika qilish barkamol, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davrida salbiy xulq-atvorning shakllanishi biologik, psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri natijasidir. Mazkur muammoning oldini olish uchun erta psixologik diagnostika, profilaktik tadbirlar, sog'lom oilaviy va maktab muhitini yaratish, maktab psixologi, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bunday yondashuv o'smirlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Nishonova Z.T. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
3. Karimova V.M. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
4. Shoumarov G'.B. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2019.
5. Albert Bandura. Social Learning Theory.
6. Urie Bronfenbrenner. The Ecology of Human Development.
7. World Health Organization. Adolescent Mental Health.
8. UNICEF. The State of the World's Children.